



**Mufasssirlar imomi Doktor Muhammad Husayn Zahabiy**

**Muxtorov Isroiljon**

Toshkent islom instituti talabasi

Email: [isroilmuxtorov001@gmail.com](mailto:isroilmuxtorov001@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada “mufasssirlar imomi” nomi ila mashhur bo‘lgan Doktor Muhammad Husayn Zahabiyning hayoti va ijodini yoritish bilan bir qatorda, u zotni chuqur ilmiy merosini ham keltirib o‘tamiz. Hamda u zot haqlarida ulamolarni maqtoiv va e’tiroflarini keltirib o‘tamiz.

**Kalit so‘zlar:** motubas, desuq, qohira, munavvara, islom tadqiqot akademiyasi, al-murodiyya.

Doktor Shayx Muhammad Husayn az-Zahabiy rohmatallohi alayh 1915-yil 19-oktyabrda Misrning Kafr ash-Shayx gubernatorligiga tobe bo‘lgan Nil daryosining sharqiy sohilida joylashgan Motubas qishlog‘ida tijorat va ziroat bilan kun ko‘radigan oilada tug‘ilgan.<sup>1</sup> Otasi u zot yoshligida vafot etib ketgani sababli akasi Husayning tarbiyasida qoldi. Yoshligida Qur‘onni to‘liq va puxta yod oldi. O‘qish va yozish talimni o‘z qishlog‘ida oldi. So‘ng u yerdan Desuq al-Azhariy diniy institutiga ko‘chib o‘tib, u yerda o‘rta talimni tamomladi. So‘ng Qohiraga borib al- Azhar ash- sharifda o‘qishni davom ettirdi. U yerda o‘z asrining yetuk olimlaridan bo‘lmish Shayx Muhammad Mustafo al-Marog‘iy, Iyso Manun, Muhammad Zohid Kavsariy, Muhammad Habibulloh ash-Shinqitiy, Muhammad al-Xadir Husayn, Ma‘mun ash-Shenaviy va boshqa bir qator ulamolardan dars oldi. 1936- yil shariat fakultetining oliy diplomoni qo‘lga kiritdilar. Va u zot 112 nafar bitiruvchilarning eng peshqadami bo‘lib o‘qishni bitirdilar.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Doktor Muhammad Abu Zayd Abu Zayd. Manahijul-mufasssirin. Yaman. “maktabatu jaylul-jadid”, 2009. 10 b.

<sup>2</sup> Mustafo Muhammad Husayn Zahabiy. At-Tafsir val-Mufasssirlar. Qohira. “darul-hadis”, 2012. 5 b.



1944-yilda tafsir va hadis fanlari bo'yicha doktorlik darajasini olgan. So'ng 1946-yilda al-Azhar universitetining „usulud-din“ fakultetida nashr qilganidan so'ng tafsir ilmida eng ahamiyatli asar bo'lgan o'zining „at-tafsir val-mufasssirun“ risolasidan dars bera boshladi.

1947-yil 15-fevralda Ulumul Qur'on ustozligidan xalqaro professor unvonini oldi. 1948-yilda Saudiya Arabistoni Toif shahridagi Daru at-Tavhid madrasasida dars berish uchun yuborilgan Azhar ulamolaridan bo'ldi. U yerda 1948-yildan 1951-yilgacha dars berdi. Bu muddat davomida Shayx Abdurrazzoq Afifiy, arab tili fakultetining ustuni bo'lgan Shayx Muhammad Nayal, „al-Hiyalu fish-shariatil-islomiyya“ kitobi muallifi Shayx Abdulvahhob Bahiriy, „al-Hadis val-muhaddisun“ asari muallifi Shayx Muhammad Abu Zahu, Shayx Zaki G'ays va Shayx Sayyid Hakim kabi bir qator ulamolar bilan faoliyat yuritdi.<sup>3</sup>

1951-yil Madinai Munavvarada dars berishlik baxtiga sazovar bo'ldi. va u yerda birinchi bor rabboniy olim shayx Abdulaziz ibn Boz rohimahulloh bilan uchrashdilar. 1952-yilda Qohiraga qaytdi va 1952-yildan 1954-yilgacha al-Azhar oliygohlarida, so'ng 1954-yildan 1955-yilgacha shariat fakultetida dars bera boshladilar. 1955-yilda Iroqda huquq fakultetida, 1961-yildan 1963-yilgacha Bag'doda shariat fakultetida dars berish bilan bir qatorda u yerdagi shariat fakulteti raisi ham bo'ldilar.

Doktor Zahabiy shia firqasidan chuqur xabardor ekanligiga dalolat qiluvchi „ahvalush-shaxsiyya bayna ahli sunna va shia“ kitobni ta'lif etdilar. Bu kitob u zotni usul fiqh va furularida hamda barcha mazhabni qamrab olishda daryo ekanligiga dalolat qiladi. Bundan tashqari bu asar u zotni faqat hanafiy mazhabiga mutaassib bo'lib qolmay boshqa mazhablarga ham ko'nglini keng ochganiga dalolat qiladi.

Manabu muddat davomida Doktor Zahabiy al-Azhar ulamolaridan bir nechtalari bilan hamsuhbat boldilar. Ulardan „taysiru usul ad-din“ asari muallifi, keyinchalik Quvayt fatvo kengashi raisi bo'lgan Shayx Badr al-Mutavalla Abdulbosit hazratlari, „naqdu kitabish-she'r al-jahiliyya“ asari muallifi Shayx Abdulhamid al-Maslut hamda „g'oriybul-Quron min

<sup>3</sup> Mustafo Muhammad Husayn Zahabiy. At-Tafsir val-Mufasssirlar. Qohira. „darul-hadis“, 2012. 5 b.



ahdi ibn Abbos ila ibn Abi Hayyon” asari muallifi bo‘lmish Doktor Abdulhamid Tolblar bilan hamsuhbat bo‘ldilar. Bundan tashqari Doktor Zahabiy “Imom A’zam Abu Hanifa an-No‘mon” masjidida bir necha marotaba xutbalar qildilar. U zot Iroqning kibor ulamolari bilan do‘st edilar. Ular “al-Murodiyya” masjidi imomi bo‘lmish Shayx Kamol at-Toiy hamda keyinchalik Bag‘dod qozisi bo‘lgan Shayx Abdulloh al-Qozilardir.

Iroqdan Misrga qaytgach 1963-1964-yillar davomida islom ayol-qizlar fakultetida dars berdi va u zotning qo‘lida yetuk olim ayol-qizlar yetishib chiqdi. Bundan so‘ng Doktor Zahabiy 1968-1971- yillar davomida Quwayt universitetida dars berish sharafiga sazovar bo‘ldilar. Va u yerda Darul ulum shariat fakulteti raisi Shayx Ali Hasabulloh, Qohira universiteti huquq fakultetining shariat qismi raisi Shayx Zakariya al-Bari, Shayx Badr al-Metvalli Abdulbasit, Doktor Abdulhamid Talab va boshqa bir qator ulamolar bilan hamsuhbat bo‘ldi.

1972-yilning 16-muharram oyida “Islom tadqiqot akademiyasi” ga yordamchi kotib etib tayinlandilar. Undan so‘ng 1973-yil 17-ramazon oyida “usul ad-din va shariat fakulteti” ga dekan lavozimiga tanlab olindilar. 1974-yil 1-jumadus-sani oyida akademiyaning bosh kotibi etib tayinlandilar. Shuningdek u zot Al-Azhar va xorijda ko‘plab doktorlik va magstirlik dissertatsiyalarning ko‘pida nazoratchi va muhokamachi bo‘lib ishtirok etganlar. Doktor Muhammad Husayn Zahabiyni o‘g‘illari Doktor Mustafo Muhammad Zahabiy otalari haqida shunday deydilar: “otam o‘ziga ishongan, oliyhimmat, haqqa o‘ta haris, bidat va xurofatga qarshi, munkar ishdan qaytaruvchi va mutaassib bo‘lmagan hanafiy edilar. Ular doim xilofni tark etish va ijtihod eshiklarini ochish tarafdori edilar”. Darhaqiqat bu xislatlar Doktor Zahabiyni naqadar buyuk shaxs bo‘lganliklarini e‘tirof etadi. Bundan tashqari u zotni Abu Zahra nomi ila mashhur bo‘lgan Shayx Muhammad Ahmad Mustafo Ahmad rohmatullohi alayh “mufasssirlar imomi” deya chaqirar edi. Shuningdek u zot



mutqin muhaddis, fasohatli xatib, dinga g'amxo'r, ummat manfaatini ko'zlovchi murabbiy va jonkuyar muallim edilar.<sup>4</sup>

Doktor Zahabiy Alloh umriga Baraka bergan zotlardan edilar. Umrlarini aksari bir qator oliygohlarda dars berish bilan o'tgan bo'lsada bir qancha asarlar ta'lif etdi. Ular:

1. "at-Tafsir val- mufasssirun".
2. "al-Isroiliyaat fit-Tafsir val- Hadis".
3. "al-Ittijahatul munharifa fit-Tafsir".<sup>5</sup>
4. "Ibn Arobiy va tafsirul Qur'on".
5. "al-Vahiy".
6. "Muqaddima fii-Ulumul-Qur'on".
7. "Muqaddima fii- Ulumul-Hadis".
8. "Tafsiru surotu Niso va Ahzob".
9. "Asaru iqomatul-hududi fi istiqroril-mujtamai".
10. "Moliyatu davlatu islomiyya".
11. "Mavqiful-islami minad-diyantis-samaviyya".
12. "Sharhu ahadisul-aqoidi fis-sohihayni".
13. "Al-Ahvalush-shaxsiyya bayna ahli sunna va ja'fariyya".

Va bulardan tashqari ham bir qancha asar va risolalar ta'lif etganlar. Ushbu kitoblarning aksari Qur'oni Karim ilmiga taalluqli asarlardir. Shundan ham bilib olsa bo'ladiki Doktor Zahabiy tafsir va Qur'oni Karim ilimlarida naqadar daryo bo'lganliklarini. Bejizga u zotni ulamolar "mufasssirlar imomi" deya chaqirmagan ekanligini ham bilib olish qiyin emas. Darhaqiqat ushbu asarlarning har biri o'ta daqiq va ilmiy tarzda yozilgandir.

1975-yilning 16-aprelida Doktor Zahabiy Iroqqa u yerda ulamolar kengashidan birida qatnashish uchun ketayotgan chog'ida u zotga Vaqf va al-Azhar ishlari vaziri etib tayinlangani xabari yetib bordi. Shayx islom ummatiga endi manabunday yuksak darajadan

<sup>4</sup> Mustafo Muhammad Husayn Zahabiy. At-Tafsir val-Mufasssirlar. Qohira. "darul-hadis", 2012. 6 b.

<sup>5</sup> Doktor Muhammad Abu Zayd Abu Zayd. Manahijul-mufasssir. Yaman. "maktabatu jaylul-jadid", 2009. 10 b.



turib xizmat qila boshladilar. Faoliyatlari davomida haqni izhor qilish, amalga chin ko'ngildan kirishish, oliy himmatli bo'lish kabi go'zal xislatlarda o'rnak bo'ldilar. Ayniqsa u zot adolatsizlikka hamda buzg'inchilik va yer yuzida fasodga olib boradiga ishlarga qarshi va ularni to'g'ri yo'lga boshlashga o'ta haris olim inson edilar. Lekin bu zotni ilm va ta'lim yo'lga chuqur muhabbati bu lavozimda ko'p turishdan qaytardi. Shu sababli u zot 1976-yil 9-noyabrda ushbu lavozimdan bo'shab, so'ng yana ta'lim sohasiga qaytib, Usuliddin fakultetida tafsir va ulumul Qur'on fanlaridan talabalariga dars bera boshladilar. Shu bilan yana shayx toliblariga ilm va ziyo tarqatishda umrlarini oxirigacha bardavom bo'ldilar.<sup>6</sup>

Doktor Muhammad Husayn Zahabiy "takfir al-hijra" guruhi tomonidan shahid etildilar. Bunga sabab o'sha davrdagi fitna va turli adashgan firqalarning davlat bo'ylab keng tarqalishi sabab bo'ldi. Doktor Zahabiy bunday firqalarga ulamolar ichida eng qattiq kurashganlaridan bo'ldilar Doktor Zahabiy bu guruhlarini ekstremistik g'oyalarini qoralovchi bir nech risolalar yozdi va unda bu noto'g'ri g'oyalar ekanini tushuntirdi. Bular yosh, bilim va tajribaga ega bo'lmagan yoshlar ekanligini, hamda ular bilan jang qilish joiz emasligini balki ularga islom haqida haqiqatni o'rgatish orqali ularni to'g'ri yo'lga boshlashimiz kerak deydi.

Ushbu botil guruh egalari o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun yo'llariga to'siq bo'lgan har qanday insonni yo'q qilishga kirishdi. 1977-yilning 3-iyul yakshanba kuni Doktor Zahabiyni uyidan o'g'irlab ketildi. Va u zotni qo'yib yuborishlari uchun bir necha shart qo'ydi. Agar bu shartlar bajarilmasa Doktor Zahabiyni o'ldirishlarini aytdilar. Ular aytgan shartlar o'z vaqtida bajarilmagach Doktor Zahabiy ular tomonidan shahid etildilar. Doktor Muhammad Husayn Zahabiyning vafotini ummat ulamolaridan tortib oddiy insonlar ichida chuqur qayg'u ila kutib olindi. Ayniqsa u zotni yaqindan tanigan, ilmidan nasibador bo'lgan yoki bir bor bo'lsada suhbatida bo'lgan kishilar ko'zida yosh ila chuqur iztirob chekdilar.

<sup>6</sup> Mustafu Muhammad Husayn Zahabiy. At-Tafsir val-Mufasssirlar. Qohira. "darul-hadis", 2012. 6 b.



U zotning janozalari al-Azhar masjidida o‘qildi. Janozani o’sha vaqtdagi al-Azhar bosh imomi Solih al-Jafariy o‘qidilar. Janozaga ming-minglab insonlar, hamkasblari, shogirtlari va yaqinlari tashrif buyurdi. U zotning ilmidan tatib ko‘rgan, yaqindan tanigan, u zotni dindagi o‘rnini bilgan har bir kishi ortidan yig‘lab qoldi. U zot Imom Shofeiyy rohimahullohning oilalari dafingohiga dafn qilindilar. Alloh taolo u zotdan O‘zi rozi bo‘lsin va rahmatiga olsin. Nabiylar, siddiqlar, shuhadolar va solihlar bilan joyini birga qilsin. Alohmma amin.

**Foydalanilgan manbaalar:**

1. Mustafo Muhammad Husayn Zahabiy. At-Tafsir val-Mufasssirlar. Qohira. “darul-hadis”, 2012. 6 b.
2. Doktor Muhammad Abu Zayd Abu Zayd. Manahijul-mufasssin. Yaman. “maktabatu jaylul-jadid”, 2009. 10 b.